

IJTIMOY-HUQUQIY YORDAM KO'RSATISH MARKAZI FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI

Jovliyev Jahongir Samad o'g'li

Annotatsiya: *voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam kursatish markazlariga joylashtirish faoliyatini tashkil etish tartibi, o'ziga xos xususiyatlari, tashkiliy va huquqiy asoslari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi, yoshlar, voyaga yetmaganlar, qarovsiz, nazoratsiz.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev :”Biz “Adolat –qonun usuvorligida“ degan tamoyil asosida jamiyatimizda qonunga hurmat, huquqbuzarlik holatlariga murosasizlik hissini kuchaytirishga qaratilgan ishlarimizni jadal davom ettiramiz.Bu borada huquqbuzarlik holatlarining oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi . Buning uchun avvalo, mahalla imkoniyatlaridan keng foydalanish, profilaktika inspektorining ish samarasi va ma'sulyatini oshirish , ular uchun munosib xizmat va turmush sharoitini yaratib berish choralarini ko'rishimiz darkor “, deb takidlab o'tdi .

Qonun ustuvorligini taminlashning muhim sharti bu huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish va huquqbuzarliklarning sabablari bilan kurashishgina emas, balki unga olib keluvchi shart –sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishdan iboratdir. Shu munosabat bilan huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy subyektlari hisoblangan ichki ishlar organlarining profilaktika faoliyatini chuqur o'rganish va uni yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Respublikamizda mustaqillik yillarida voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlari himoyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Hozirgi kunda voyaga yetmaganlarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash, ularning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, iqtidorli bolalarni rag'batlantirish borasidagi tadbirlar bilan bir qatorda jinoyat sodir yetgan voyaga yetmaganlarning axloqini tuzatish , ularni to'g'ri yo'lga tushib olishi borasida ham izchil ishlar olib borilmoqda.

Hozirda mamlakatimizda aholining 60 foizidan ortig'ini yoshlar tashkil etadi. Shu boisdan, aholining aksariyat qismini tashkil etadigan yoshlarimizni har tomonlama komil inson etib tarbiyalash, ular o'rtasidagi muammolarni hal etish, yoshlarni davlat va jamiyat hayotidagi muhim masalalarni hal qiluvchi kuchga aylantirish masalasiga alohida e'tibor qaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Shu sababdan, mustaqil respublikamizda yoshlarga oid siyosat davlat faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning asosiy maqsadi – yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari

yo'lida to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

Huquqbuzarlik jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy-huquqiy va ruhiy hodisa bo'lib, bugungi kunda huquqbuzarliklar profilaktikasi jinoyatchilikka qarshi kurashishda bosh yo'nalishga aylandi va natijada siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy sohalar bilan bir qatorda sud-huquq tizimi, shu jumladan huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimida ham keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda va islohotlar jarayonida, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasining samaradorligini oshirish maqsadida 10 dan ortiq qonunlar va 100 dan ortiq qonun osti hujjatlari qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida davlatimizda yoshlarni tarbiyalash va ular faoliyatini amalga oshirish mexanizmi va huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, buni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlar, "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi", Mehnat kodeksi, Fuqarolik kodeksi va boshqa asosiy qonunlarimizda ko'rishimiz mumkin.

Konstitutsiyamizning biror bir moddasi yo'qki, yoshlar huquqlari va manfaatlari bilan bog'liq bo'lmasa. Konstitutsiyamizning muqaddima qismidan unga alohida urg'u qaratiladi, ya'ni, "inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda" degan iboraning keltirilishi konstitutsiya bugungi kun nuqtayi nazaridan balki kelajak avlod, ya'ni yoshlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda qabul qilinganligini bildiradi.

Konstitutsiyamizning asosiy prinsiplarga bag'ishlangan 1-bo'limda ham yoshlarimiz huquq va erkinliklariga xizmat qiluvchi normalar o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyamizning 2-moddasida mus-tahkamlanganidek, "Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning man-faatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'uldirlar". Ushbu normaning ahamiyati shundaki, O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston fuqarolari tashkil etar ekan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholimizning 60 foizdan ortig'ini yoshlarimiz tashkil etadi. Shundan kelib chiqib ushbu qoida yoshlarimiz uchun hayotda qanchalik qo'l kelayotganligini tasavvur etish qiyin emas.¹

Konstitutsiyamizning 4-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Yuqoridagi normaning hayotdagi ifodasi sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillaridan iborat yoshlar yashamoqda.

¹ <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445363> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

Ushbu yoshlarga o'z tillarida gaplashishi, ta'lim olishi va urf-odat va an'analarini kelajak avlodga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.²

Asosiy qonunimizning 12-moddasiga mustahkamlanganidek, O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilmaxilligi asosida rivojlanadi. Ushbu konstitutsion norma yoshlarimizga siyosiy institutlar faoliyatida ishtirok etish, milliy istiqbol mafkurasi asosida yashash hamda mustaqil siyosiy fikrlashga huquqiy imkoniyat yaratadi.³

Konstitutsiyamizning "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanuvchi 2-bo'limda yoshlarimizning huquq va erinliklari va burchlari hamda ularning konstitutsion kafolatlari to'g'risidagi qoidalar o'z ifodasini topgan.

Umumiy qoidaga ko'ra, yoshlarimiz bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Hozirgi kunda yoshlarimizga ko'plab imkoniyatlar yaratilgan bo'lib, ular nafaqat yurtimizda balki, chet mamlakatlarda o'qish va ishlash imkoniga ega va hozirgi kunda ko'plab yoshlarimiz bu imkoniyatlardan foydalanmoqda. Konstitutsiyamizning 23-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi. Bu norma O'zbekiston tashqarisida faoliyat olib borayotgan yoshlarimiz uchun har tomonlama g'amxo'rlik sanaladi. O'zbekiston Konstitutsiyasining 24-moddasiga ko'ra, o'z navbatida yurtimizda faoliyat olib borayotgan yoki ta'lim olayotgan chet ellik yoki fuqaroligi bo'lmagan yoshlarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni voyaga yetmaganlarning qarovsizligi va nazoratsizligining oldini olish, ular tomonidan turli huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi. Mazkur Qonunning maqsadi bevosita voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.⁴

O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunini ko'rsatishimiz mumkin. Bu qonun 32 ta moddani o'z ichiga olgan to'rtta bo'limdan iborat bo'lib, umumiy qoidalar, bola huquqlarining asosiy kafolotlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari va yakunlovchi qoidalarga oid masalalar qonuniy tarzda ko'rsatilgan. Bu qonun o'zining maqsadi bilan, bola huquqlarining kafolotlari borasidagi

² <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445363> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

³ <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445363> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

⁴ O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni

munosabatlarini tartibga solishi bilan boshqa qonunlardan farq qiladi va o'zining ana shu jihati bilan ahamiyatlidir.⁵

Mazkur qonun mamlakatimizda istiqomat qiluvchi yoshlarning ham huquqlarini kafolotlab berdi. Bu o'z navbatida mamlakatimizdagi umumiy aholining taxminan 40 foizidan ko'prog'ini tashkil qiladigan 18 yoshgacha bo'lgan yoshlarimizning huquqlarini qonuniy tarzda kafolatlanganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, xalqimizning milliy mentalitetidan kelib chiqib, farzandlarimizni munosib vorislar qilib tarbiyalash maqsadida yoshlarga doir 1997 yilning 29 avgustida O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi⁶ qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun yoshlarga ta'lim tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilab har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashni nazarda tutadi. Milliy dastur esa kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni maqsad qilib qo'ydi.

Yoshlarining ijtimoiy hamda ma'naviy kamol topishi uchun shart-sharoit yaratib berishga qaratilgan yoshlarga oid siyosatni ishlab chiqib uni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.

Mazkur qonunning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlarini yo'lida imkoni boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat etib belgilandi.

Qonunda **yoshlarga oid davlat siyosati** — "davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlar tizimi" (3-modda) ekanligi belgilab berilgan.⁷

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori⁸ talablari asosida qabul qilindi. Mazkur qaror talablari doirasida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha respublika

⁵ O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonun

⁶ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 йил, 9-сон.

⁷ O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonuni

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2833-sonli qarori

idoralararo komissiya tashkil etilib, ularning faoliyat yo'nalishlari belgilab berildi. Jumladan:

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik, qarovsizlik, huquqbuzarliklar va boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarning oldini olish, ularga imkon tug'diruvchi sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish;

voyaga yetmaganlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy-pedagogik rehabilitatsiya qilish maqsadida tuziladi.

Ota-ona yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar nazoratsiz va qarovsiz qolgan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalarda yashayotgan, davlat va jamoatchilik yordamiga muhtoj bo'lgan voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha faoliyatni samarali tashkil etish, shuningdek, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-avgustdagi 490-son qarori qabul qilindi. Bu qaror asosida nazoratsiz va qarovsiz voyaga yetmaganni Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish tartibi, muddatlari, yo'nalishlari belgilangan.

Unga ko'ra, Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirishni talab qiluvchi holatlar aniqlangan taqdirda, mahalla huquq-tartibot maskaniga yoxud ichki ishlar organlarining bo'linmalariga keltirilgan paytdan e'tiboran 48 soat ichida voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risida sudga iltimosnoma yuborish uchun materiallarni tayyorlashi shart.

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma va uni mazkur markazga joylashtirish zarurligini tasdiqlovchi materiallar voyaga yetmagan topilgan joydagi yoxud ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi joylashgan yerdagi jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudiga ichki ishlar organi boshlig'i yoki uning o'rinbosari tomonidan yuboriladi.

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma ichki ishlar organi uni taqdim etgan paytdan e'tiboran 24 soat ichida jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudining sudyasi tomonidan yopiq sud majlisida yakka tartibda ko'rib chiqiladi.

O'ziga nisbatan ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma ko'rib chiqilayotgan voyaga yetmagan, prokuror, vasiylik va homiylik organining, ichki ishlar organining vakillari sud majlisida ishtirok etishi shart. Iltimosnomani ko'rib chiqishda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaning vakili va advokat ishtirok etishi mumkin.

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqish ichki ishlar organi vakilining

voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish zarurligini asoslab beradigan ma'ruzasidan boshlanadi. So'ngra prokuror, o'ziga nisbatan iltimosnoma ko'rib chiqilayotgan voyaga yetmagan, advokat, agar u sud majlisida ishtirok etayotgan bo'lsa, sudda hozir bo'lgan boshqa shaxslar eshitiladi, taqdim etilgan materiallar o'rganiladi.

Voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnomani ko'rib chiqib, sudya uyidagi ajrimlardan birini chiqaradi:

iltimosnomani qanoatlantirish va voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risida;

iltimosnomani qanoatlantirishsiz qoldirish to'g'risida.

Sudyaning voyaga yetmaganni ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirish to'g'risidagi iltimosnoma bo'yicha chiqargan ajrimi darhol ichki ishlar organiga ijro etish uchun, voyaga yetmaganga, uning ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarga, vasiylik va homiylik organiga, advokatga, agar u sud majlisida ishtirok etgan bo'lsa, ma'lumot uchun yuboriladi.

Profilaktika inspektorlari ma'muriy hududda olib borilayotgan xizmati davomida nazoratsiz va qarovsiz yurgan voyaga yetmaganlarni aniqlaganda yoki ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari xodimlari, boshqa idoralar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari tomonidan nazoratsiz va qarovsiz yurgan voyaga yetmaganlar tayanch punktlariga olib kelingan taqdoida ularni ota-onasi yoki ularni o'rnini bosuvchi shaxslarga topshirish, shaxsini va yashash manzilini aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdoida, belgilangan tartibda sog'liqni saqlash muassasalari hamda Markazga joylashtirish choralarini ko'radi.

O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 30-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 12-moddasida ko'rsatiib o'tilganidek, ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari o'z vakolatlari doirasida:

uch yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning shaxsini aniqlash, hayoti, sog'lig'ini muhofaza qilish yoki ular tomonidan takroran huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida ularni kecha-kunduz qabul qilishni hamda vaqtincha saqlashni ta'minlaydi;

olib kelingan voyaga yetmaganlar bilan yakka tartibdagi profilaktika ishini olib boradi, voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlaydi hamda bu haqda tegishli davlat organlarini va boshqa tashkilotlarni xabardor qiladi;

voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalariga olib boradi, shuningdek ushbu muassasalarda saqlanayotgan voyaga yetmaganlarni joylashtirish bo'yicha boshqa chora-tadbirlarni amalga oshiradi.⁹

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445363> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2833-sonli qarori

⁹O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktika to'g'risida"gi qonuni. T., 2010. 12-modda.